oilaviy qarashlarga asoslanganligini ko‘rsatadi. Nemis madaniyati esa ko‘proq individualizmga e’tibor beradi, shuning uchun ayolning baxti va quvonchi uning shaxsiy erkinligi va muvaffaqiyatiga bog‘liq.

**Xulosa va takliflar.** Lingvomadaniy tahlil orqali, “Ayol – quvonch” konseptual metaforasi har ikki til va madaniyatda turlicha shakllanadi. O‘zbek tilida ayol oila va jamiyatdagi baxtni yaratuvchi muhim figura sifatida aks etgan bo‘lsa, nemis tilida ayolning quvonchi shaxsiy erkinlik va baxtga bog‘langan. Bu tahlil til va madaniyatning bir-biriga ta’sirini, shuningdek, ijtimoiy rollarni va qadriyatlarni qanday aks ettirishini o‘rganishga yordam beradi.

“Ayol – quvonch” konseptual metaforasi, tilshunoslikda ayol va quvonch o‘rtasidagi ijtimoiy va psixologik aloqalarni ko‘rsatib, ayolning jamiyatdagi muhim o‘rni va uning ijobiy energiyasi haqida tushuncha beradi. Bu metafora orqali ayol nafaqat oila va jamiyatda, balki insonning ichki dunyosida ham quvonchning manbayi sifatida aks etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


(1). Beyer H., Beyer A. Sprichwörterlexikon. Москва, “Высшая школа”, 1989, c. 173.

(2). Evans V., Green M. Cognitive Linguistics. An Introduction. Edinburg: Edinburg University Press, 2006.

(3). GibbsJr. R.W. Idioms and formulaic language. In D.Geeraerts & H.Cuyckens (Eds.), The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. 2007, 717 p.

(4). Jo‘raxolova B. Metaforani tadqiq qilishda semantik-kognitiv yondashuv. European Journal of sciens archives conferences series. https://doi.org/10.5281/zenodo.10251531

(5). Juraholova B. The Role of metaphors expressing the image of a women with a gender component in proverbs and paremies of german and uzbek languages. Science and Innovation (INT-JECSE). ISSN: 2181-3337. Vol 3, Issue 03. 22.03.2024, p. 11–16.

(6). Lakoff G. The contemporary theory of metaphor. In D.Geeraerts R.Dirven., J.R.Taylor (Eds.), Cognitive linguistics: basic readings. 2006, p. 185–238.

(7). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live by. Chicago, Chicago University Press, 1980.

(8). Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent, 2005, 7, 257-bet.

(9). Simrock K. Die Deutschen Sprichwörter. Ausgewählt und bebildert von Heidelbach N. Philipp Reclam jun. GmbH & Co. Stuttgart, 2011, s. 57.



**Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich (Urganch davlat universiteti “Roman-german filologiyasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; ruzmetovxamid8@gmail.com),**

**Ro‘zmatova O‘g‘iljon Shukurillo qizi (Urganch davlat universiteti xorijiy filologiya fakulteti 2-bosqich magistranti; ugilzonrahimova@gmail.com)**


## SHAXSNI TASVIRLOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING TARJIMADA BERILISHI


***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada fransuz yozuvchisi Guy de Mopassaning “Azizim” romani misolida shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimada qanday aks etishi, tarjimonning tanlovi va uning madaniy kontekstga ta'siri tahlil qilinadi.*



***Kalit so‘zlar:*** *badiiy tarjima, shaxsni tasvirlovchi birliklar, ekvivalent, tarjima, obyektiv, neytral uslub.*



**Рузметов Хамид Каландарович (Ургенчский государственный университет, доцент),**

**Рузматова Угилжон (Ургенчский государственный университет, магистрант)**


## ПЕРЕВОД ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ОПИСАНИЕМ ЛИЧНОСТИ


***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается проблема передачи единиц, описывающих человека, на примере романа «Милый друг» французского писателя Ги де Мопассана. Изучается принцип выбора слов переводчиком, а также его влияние на культурный контекст.*



***Ключевые слова****: художественный перевод, описывающие человека единицы, эквивалент, перевод, объективный, нейтральный стиль.*



**Ruzmetov Khamid (Docent of Urgench State University),**

**Ruzmatova Ugiljon (master student of Urgench State Universty)**


## TRANSLATION OF LEXICAL UNITS DESCRIBING PERSONALITY


***Annotation****. In this article, person describing expressions, their interpretation, the choice of the translator and its impact on the cultural content on the example of the novel “Dear” by the French writer Guy de Maupassant.*



***Key words****: literary translation, descriptive units, equivalent, translation, objective, neutral, style.*


**Kirish (Introduction).** Hozirgi globallashayotgan dunyoda til va madaniyatlararo muloqotning muhimligi ortib bormoqda. Tarjima asrlar davomida xalqaro aloqalarning muhim vositasi sifatida xizmat qilib kelgan bo‘lsa-da, bugungi kunda uning ahamiyati yanada kuchaygan. Axborot texnologiyalari va ilm-fan-

ning rivojlanishi, globallashuv va turli xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bilan tarjima yangi imkoniyatlarni ochuvchi kuchga aylangan. Tarjima jarayonida eng murakkab vazifalardan biri shaxsni tasvirlovchi birliklarni, ya’ni personajlarning xarakterini, xulq-atvorini, ichki dunyosini va tashqi ko‘rinishini o‘zgartirmasdan, boshqa tilga to‘liq yetkazishdir. Bu vazifani bajarayotganda tarjimon nafaqat tilning leksik va grammatik qoidalarini o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak, balki shaxsni tasvirlovchi birliklarning madaniy, psixologik va estetik nozik ma’no farqlarini ham yaxshi bilishi zarur.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Til birliklarini, xususan, shaxsni tasvirlovchi birliklarni tarjima qilish masalasi tarjimashunoslik va lingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarjimashunoslik bo‘yicha asosiy nazariy manbalar qatoriga Vinay va Darbelnening (1958) “Stylistique comparée du français et de l’anglais” asari kiradi. Unda tarjima jarayonidagi asosiy strategiyalar va usullar, jumladan, to‘g‘ridan to‘g‘ri va bilvosita tarjima usullari keltirilgan. Shaxsni tasvirlovchi birliklar tarjimada aynan qanday strategiyalar yordamida o‘zgartirilishi mumkinligi ushbu tadqiqot asosida baholanadi. Bundan tashqari, tilshunos Jonuzoqova Chaman Murodilla qizining “Ingliz va o‘zbek adabiyotida ayol obrazini ifodalovchi badiiy vositalar tarjimasidagi muammolar” mavzusidagi maqolasida tarjima muammolariga to‘xtalib o‘tgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Ushbu maqolada Mopassanning “Azizim” asaridagi shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimada berilish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotda lingvistik va tarjimashunoslik yondashuvlari qo‘llanilib, shaxs tasvirini aks ettiruvchi leksik, grammatik va stilistik birliklarning tarjima jarayonida qanday o‘zgarishi o‘rganiladi. Tadqiqot sifat jihatdan tahlilga asoslanib, quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Taqqoslash-tahlil metodi – asarning fransuz tilidagi asl matni va o‘zbekcha tarjimasi o‘zaro taqqoslanib, shaxsni tasvirlovchi birliklarning o‘zgarishlari o‘rganildi.

2. Kontekstual tahlil – matndagi tasviriy vositalarning tarjimada qanday aks etganligi va tarjimon tomonidan qanday muqobillar tanlanganligi o‘rganildi.

**Tahlil va natijalar (analysis and results)** Tarjima jarayonida eng murakkab vazifalardan biri shaxsni tasvirlovchi birliklarni, ya’ni personajlarning xarakterini, xulq-atvorini, ichki dunyosini va tashqi ko‘rinishini o‘zgartirmasdan, boshqa tilga to‘liq yetkazishdir. Bu vazifani bajarayotganda tarjimon nafaqat tilning leksik va grammatik qoidalarini o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak, balki shaxsni tasvirlovchi birliklarning madaniy, psixologik va estetik nozik ma’no farqlarini ham yaxshi bilishi zarur. Guy de Mopassaning “Azizim” romani, aynan shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimada qanday aks etishi, tarjimonning madaniyatlararo muvofiqlikni qanday ta’minlashga harakat qilishi haqida juda yaxshi misol bo‘la oladi. Masalan, asl matn: Sur la scéne, trois jeune hommes, **en maillot collant, un grand, un moyen, un petit**, faisaient tour à tour, des exercices sur trapéze. Tarjima matni(Ibrohim G‘ofurov): Sahnada **triko kiygan, biri daroz, ikkinchisi o‘rta bo‘yli, uchinchisi pakana** uchta yosh yigit trapetsiyada navbatma-navbat mashq ko‘rsatmoqda edi. Tarjimada ham shaxslar asosan asl matndagi tasvirlovchi birliklarga mos ravishda ta’riflangan: “uchta yosh yigit” – asl matndagi “trois jeunes hommes”ning ekvivalenti hisoblanadi;

“triko kiygan” – “en maillot collant”ning tarjimasi;

“biri daroz, ikkinchisi o‘rta bo‘yli, uchinchisi pakana” – bo‘yga oid farqlar asl matnga yaqin ifodalangan. Tarjima matni asl matnga yaqin qolgan, lekin ba’zi joylarda tarjimon ijodiy yondashgan: “en maillot collant” → “triko kiygan”. “Maillot collant” fransuz madaniyatida sport kiyimiga xos atama bo‘lib, ”triko” bu kontekst uchun mantiqiy ekvivalent hisoblanadi. Triko so‘zi o‘zbek tili izohli lug‘atida quyidagi ma’nolarga ega:

**1. Ustki kiyimlar tikish uchun ishlatiladigan, jimjimador qilib to‘qilgan jun gazlama.** Kostyumlik triko. Triko shim.

**2. Trikotaj to‘qimadan tikilgan, gavdaga yopishib turadigan sport yoki teatr kostyumi.** Darvoza ochilib, yo‘g‘on qomatini sportchilar kiyadigan qalin triko siqib turgan Shamsi To‘rayevich ko‘rindi. *N.* Aminov, Suvarak.

Fransuz tilining izohli lug‘atida “triko” so‘ziga quyidagicha izoh beradi: Tissu formé d'une matière textile disposée en mailles et confectionné avec des aiguilles (→ bonneterie). Un gilet de tricot. Action de tricoter. Faire du tricot. Vêtement tricoté. → chandail, pull-over. Tricot de corps, de peau. → maillot.

Ya’ni, «maillot», odatda, yengil, tanaga yopishgan, ko‘pincha, sport yoki yozgi faoliyatlar uchun ishlatiladi. «Triko» esa iliq, to‘qilgan kiyim bo‘lib, sovuq mavsumlar va qulaylik uchun mo‘ljallangan.

**“...un grand, un moyen, un petit”** → “biri daroz, ikkinchisi o‘rta bo‘yli, uchinchisi pakana”. Bu yerda bo‘yni tasvirlashda o‘zbek tilining ifoda vositalari qo‘llanilgan.

**“Daroz”, “o‘rta bo‘yli” va “pakana”** iboralari o‘zbek tilida tushunarli va mantiqiydir va bu asl matndagi aniqlovchi sifatlarga to‘liq mos tushadi. Bu yerda yana til va uslubning milliy xususiyatga mosligini ham ko‘rib chiqish zarur. Tarjimada shaxslarni tasvirlashda o‘zbek tiliga xos sodda va tushunarli uslub qo‘llanilgan. Masalan, “biri daroz” ifodasi ko‘proq xalqona, o‘ziga xos uslubni beradi. Bu uslub tarjimani asl matndan ko‘ra, ko‘proq o‘zbek o‘quvchisiga yaqin qiladi. Asl matnda shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlovchilar bilan berilgan bo‘lsa, tarjimada bu jihat izohlash orqali aniqroq ifodalangan.

Shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimadagi ahamiyati juda katta, chunki bunday birliklarning tarjimasi asarning umumiy mazmunini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, quyidagi parchani olaylik. Asl matn: **La chaire des bras et de la gorge sortait d’une mousse de dentelle blanche dont etaient garnis le corsage et les courts manches.** Tarjima matni: **Ko‘ylagining yoqasidan beligacha oppoq ko‘pirib turgan to‘rga chulg‘anagan, kalta yengi ham to‘rdan bo‘lib, bo‘yni va yalang‘och qo‘llari shu to‘rdan chiqib turardi.** Bu yerda tarjimon badiiy tarjima asl matnda shaxsning tashqi qiyofasi quyidagi elementlar orqali tasvirlangan: “**La chair des bras et de la gorge”** – Shaxsning bo‘yni va qo‘llarining ochiq joylari, ya’ni terisi nazarda tutilgan. “...**sortait d'une mousse de dentelle blanche”**– Ular oppoq o‘ymakor to‘r ichidan “chiqib turayotgan” holatda tasvirlangan. “...**dont étaient garnis le corsage et les courts manches”** – To‘r ko‘ylakning yoqasi va kalta yenglarida joylashgani haqida batafsil ma’lumot beradi. Tarjimada esa bu tasvirlar quyidagicha ifoda etilgan:

“...**bo‘yni va yalang‘och qo‘llari shu to‘rdan chiqib turardi”**. Asl matndagi “**chair des bras et de la gorge”** aniq va tushunarli tarzda aks ettirilgan.

Bu parchada til va uslub xususiyatlariga alohida e’tibor berish zarur. Tarjima matnida shaxsni tasvirlashda o‘zbek tiliga xos ifoda vositalari ishlatilgan. Asl matn: “...**sortait d’une mousse de dentelle blanche”.** Bu ibora sof tasviriy bo‘lib, “chiqib turardi” orqali harakat ifodasi berilgan.

Tarjima matn: “*...oppoq ko‘pirib turgan to‘rga chulg‘angan”*. Tarjima matnida “*ko‘pirib turgan”* va “*chulg‘angan”* iboralari qo‘llanilib, tasvir yanada jonlantirilgan. Ushbu uslub tarjimonning ijodiy yondashuvini ko‘rsatadi. Asl matndagi tasvirlovchi birliklar nafislik va estetik didni aks ettiradi. Tarjimada bu hissiyotlar saqlanib, o‘zbek tilining madaniy-estetik mezonlariga mos ravishda ifodalangan. Misol uchun: *Dentelle blanche → oppoq ko‘pirib turgan to‘r,* ya’ni *oq to‘r*ning nafisligi *ko‘pirib turgan* ifodasi bilan kuchaytirilgan. Asl matnda alohida tasvirlangan *corsage* va *courts manches* tarjimada *“yoqa va kalta yeng”* deb umumiy tarzda berilgan. Bu o‘quvchiga tushunarli va mantiqiy ekvivalent hisoblanadi. Fransuz tilining izohli lug‘atida “*corsage*” so‘ziga quyidagicha izoh berilgan: *Vieilli. Vêtement féminin qui habille le buste; chemisier (ayollar ustki kiyimi). Haut d'une robe (ko‘ylakning yuqori qismi). Corps, silhouette d'un cerf.*

*Chaire des bras et de la gorge → bo‘yni va yalang‘och qo‘llari*. Tarjimada *yalang‘och* so‘zining qo‘shilishi matndagi *ochiq joylarni* yanada aniqroq tasvirlashga xizmat qiladi. Bu tarjimon tomonidan kontekstni milliy madaniyatga moslashtirish sifatida qabul qilinishi mumkin.

Yana bir misolda quyidagicha tasvirlarni uchratishimiz mumkin: Une de ces femmes, s’étant accoudée à leur loge, le regardait. C’était **une grosse brune à la chair blanchie par la pâte, à l’œil noir, allongé, souligné par le crayon, encadré sous des sourcils énormes et factices.** Tarjimon esa uni o‘zbek tilida quyidagicha bergan: **Xotin lobar, sochlari qora, ko‘zlariga surma tortgan, qoshlarini payvasta qilib bo‘yagan, yuzlariga upa-elik surib olgandi**.

Asl matnda ayolning tashqi ko‘rinishini ifodalash uchun aniq tasviriy birliklar keltirilgan: *grosse brune, chair blanchie par la pâte, œil noir, allongé, souligné par le crayon*. Tarjimada bu birliklarning ba’zilari mos ravishda ifodalanmagan: *grosse brune* (semiz, qoramtir ayol) – bu birlik tarjimada yo‘qol-gan. O‘zbekcha matnda faqat *xotin lobar* deyiladi, bu esa ayolning tashqi ko‘rinishini emas, balki biror go‘zallikni ifodalashga qaratilgan.

*...chair blanchie par la pâte* (pudra bilan oqarib ketgan yuz) – bu tasvir *yuzlariga upa-elik surib olgandi* iborasi bilan berilgan. Tarjima umumiy ma’noni saqlagan bo‘lsa-da, asl matndagi pardozning tabiiy bo‘lmagan, sun’iy ko‘rinishini aniq aks ettirmaydi. Asl matnda ayolni tasvirlashda uning pardozidagi sun’iylik va haddan tashqari bo‘rttirilganlik asosiy urg‘u bo‘lgan: *...sous des sourcils énormes et factices* (katta va sun’iy qoshlari ostida). Tarjimada bu qism *qoshlarini payvasta qilib bo‘yagan* tarzida berilgan. Garchi qoshlarning bo‘yalishi tasvirlangan bo‘lsa-da, ularning sun’iyligi va katta hajmda bo‘rttirilganligi yetkazilmagan. *...œil noir, allongé, souligné par le crayon* (cho‘zilgan qora ko‘zlari, qalam bilan bo‘yalgan). Tarjimon bu tasvirni *ko‘zlariga surma tortgan* deb soddalashtirgan. Cho‘zilgan shakl va pardoz uslubining o‘ziga xosligi yo‘qolgan. Buning ustiga asl matnda tasvir ko‘proq neytral va tavsifiy tilda berilgan, ya’ni ayolning tashqi ko‘rinishini aniq tasvirlashga qaratilgan. Tarjimada esa *lobar* kabi so‘zlar ishlatilgan, bu so‘z o‘zbek o‘quvchisi uchun go‘zal, nazokatli ayolni anglatadi. Shu orqali asl matndagi

ayolning haddan tashqari pardoz qilgani va sun'iy ko'rinishi ifodalanmagan, balki unga qisman ijobiy ohang berilgan. Fransuz tilidagi *une grosse brune* kabi tasvirlar madaniy jihatdan o'zbek tiliga ko'chirilganda, bevosita tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi. O'zbek madaniyatida ayolni semiz va qoramtir deb ta'riflash, ko'pincha, salbiy ohangda qabul qilinadi, shu sababli tarjimon bu elementni olib tashlagan. Biroq bu o'zgartirish asl matndagi qahramonning ko'rinishi haqidagi ma'lumotlarni yetkazmaydi. Bu o'rinda *to'lachadan kelgan qoramag'iz ayol* tarzida berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asl matnning uslubi o'ta detallashtirilgan va nazokat bilan qurilgan. Muallif (Guy de Maupassant) ayolning tashqi ko'rinishini aniq va tasviriy birliklar orqali ifodalashga harakat qilgan. Matnda quyidagi xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

Ayolning tashqi ko'rinishi juda aniq tasvirlangan: *une grosse brune, chair blanchie par la pâte, œil noir, allongé, souligné par le crayon, sous des sourcils énormes et factices*. Bu so'zlar faqat yuzaki ta'rif bo'lib qolmay, balki qahramonning pardozidagi sun'iylikni va shaxsiy xarakteristikalarini ham ko'rsatib beradi. Matnda muallif subyektiv fikrini bildirishga shoshilmaydi. Muallif ayolni yaxshi yoki yomon deb baholamaydi, balki u qanday ko'rinishini tasvirlaydi.

Pardozning sun'iyligi va bo'rttirilganligini ta'kidlash bilan cheklanadi, xulosani o'quvchining o'ziga qo'yib beradi. Asl matnda muallif tasvirni obyektiv tarzda bergan bo'lsa, tarjima qilingan matnda subyektiv ohang paydo bo'lgan. *Xotin lobar* so'z birikmasi bu ayolni asl matndagidek oddiy kuzatish orqali emas, balki go'zal deb ta'riflaydi. Bu esa muallifning niyatiga qisman zid keladi.

Asl matnda ayolning tashqi ko'rinishidagi sun'iylik va haddan oshgan pardoz o'quvchida salbiy taassurot qoldirish uchun tasvirlangan. O'zbekcha tarjimada esa bu salbiy taassurot o'rniga ijobiyroq yoki neytral ohang paydo bo'lgan. Asl matnda qahramonning pardoz uslubi orqali uning xarakteriga (haddan oshgan sun'iylik va go'zallikni bo'rttirish) oid tasavvurlar yaratilgan. Tarjimada esa bu jihatlar tasvirlanmay, o'quvchining o'z qiyofasida biror "ideal go'zallik"ni tasavvur qilishiga yo'l qo'yilgan. Bu uslub farqi qahramon obrazining tarjimada o'zgarishiga olib kelgan.

Ma'noni to'liq saqlash uchun asl matndagi *grosse brune* va *factices* kabi birliklar tarjimada o'z-bek o'quvchisiga yaqinroq va aniqroq tarzda ifodalanishi kerak edi. Masalan, "Sun'iy pardoz bilan yuzlari oqarib ketgan, qora cho'zilgan ko'zlariga qalam tortilgan, qalin bo'yalgan qoshlari bilan..." tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yana shuni aytish lozimki, tarjimada "lobar" so'zi ayolga ijobiy ohang beradi, lekin bu asl matnning niyatiga zid. Sun'iy va haddan ziyod pardoz qilgan ayol qiyofasi madaniyatga mos ekvivalent bilan berilishi lozim edi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations)**. Tarjimada shaxsni tasvirlovchi birliklar muhim rol o'ynaydi, chunki ular faqat personajlarning tashqi ko'rinishini emas, balki ularning ichki dunyosini, hissiyotlarini ham o'quvchiga yetkazadi. Mopassaning *"Azizim"* romanidagi shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimadagi ahamiyati nafaqat tilning o'ziga xos xususiyatlarini, balki madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olishni talab qiladi. Tarjimonlar, bu birliklarni to'g'ri tarjima o'zining til va madaniyatlararo bilimini chuqur ishlatib, asar mazmunini va personajlarning ichki holatini mukammal tarzda ifodalashga intilishlari kerak. Shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimada to'g'ri aks ettirilishi, o'quvchining asar bilan chuqurroq bog'lanishiga va uning mazmunini to'g'ri tushunishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**


(1). I.Gafurov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi, 2012.
(2). Maupassan. Bel-Ami. Librairie Générale Française, 2024.
(3). Mopassan. Azizim. "Ilm ziyo zakovat", 2021.
(4). Komiljon Jo'rayev. Tarjima san'ati. Toshkent, 1982.
(5). E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2012.
(6). Ғайбулла Саломов. Таржима ташвишлари. Тошкент, 1983.
(7). O'zbek tilining izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
(8). Le Robert dico en linge. https://dictionnaire.lerobert.com/



**Tursunbayeva Zuhra Ro'zimat qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi tayanch doktoranti; zuhra4822@gmail.com)**


## BADIIY TARJIMADA MUSHTARAK MADANIY-TARIXIY BIRLIKLARNING BERILISHI


***Annotatsiya.*** *Maqolada o'zbek tilidan hindiy tiliga tarjima qilingan tarixiy asarlardagi arxaizmlar, shuningdek, milliy madaniyatga xos so'zlarning tarjimada ifodalanishi tahlil etildi. Jumladan, taqya, dastor, to'n, dasturxon, dubulg'a, po'stin, qo'shin, salohdor, chaqirim kabi so'zlarni hindiy tiliga o'girishda*